

# QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI  
1-SON

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**


**2023**  
VOLUME №1



**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI  
1-SON**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD  
VOLUME 1**

**ВЕСТНИК  
КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТ  
ВЫПУСК 1**



1/2023

# QO'QON UNIVERSITETI

## XABARNOMASI

### Ilmiy-elektron jurnali

#### Tahrir kengashi raisi:

G'.E.Zaxidov

#### Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

#### Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

#### Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

#### Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2023

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

## Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	K. Konstantin	Factors and vector of the development of institutions in the sme sector of the national economy	3-7
2.	B. Khursanaliyev	The impact of population growth on the country's economic development	8-11
3.	N. Sharapova	Network analysis of social media research in entrepreneurship development	12-15
4.	M. Абдуллаев	Тенденции и перспективы развития сферы услуг в узбекистане	16-20
5.	Г. Карабаева	Стимулы развития малого бизнеса для повышения качества жизни населения	21-24
6.	A. Вахромов	Problems of the digitalization process in networks and sectors of the economy	25-28
7.	Sh. Dexkanov	Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish	29-34
8.	N. Karimova	Analysis of the current state of retail advertising: a systematic mapping study	35-38
9.	O. Исоев	Внедрение международных стандартов при исламском финансировании в узбекистане	39-42
10.	J. Nuritdinov, A. Abdullayev	O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi	43-47
11.	J. Qodirov	Davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalashning o'rni	48-50
12.	S. Rustamova	Korxonalarda qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy matematik modellashirish	51-56
13.	A. Sattorov	Auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvlari o'tkazish jarayonida dalillarni to'plash ahamiyati va zaruriyati	57-60
14.	B. Turanboyev Sh. Nishonkulov	Does inflation significantly affect stock investments and their price?	61-64
15.	A. Xojayev	Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish yo'llari	65-68
16.	M. Xomidov	Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni	69-72
17.	N. Yuldasheva, A. Umarov, A. Abdullayev	Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi	73-75
18.	A. Yusupov	O'zbekiston iqtisodiy sharoitida inson resurslaridan foydalanishdagi faoliyat turlari	76-78
19.	M. Turg'unov	Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda ekonometrik prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish	79-83
20.	D. Мамаюсупова	Мамлакатизда давлат-хусусий шериклиги асосида туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари	84-90
21.	K. Ахмеджанов Ф. Зайниев	Аҳоли даромадлари ва харажатлари балансига жисмоний шахслар даромад солигининг оптимал таъсирини таъминлаш йўллари	91-96
Pedagogika / pedagogy			
22.	Sh. Jumanova	Peyzajning ijtimoiy - psixologik motivni anglatishdagi o'rni	97-99
23.	O. Kasimova	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyati jarayonida pedagogik improvizatsiyaning o'rni	100-102
24.	B. Safarov	Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	103-105
25.	A. Тангриев	Малакали дзюдочиларни тайёрлашда буралиб улоқтириш бўйича малака тавсиялар	106-111
Lingvistika / Linguistics			
26.	D. Azimova D. Solidjonov	Learning english language as a second language with augmented reality	112-115
Qishloq xo'jaligi / Agriculture			
27.	A. Xatamov X. Jabborov	«BUXOROISHARIF» zavod tipining asosiy xususiyatlari	116-118



## QURILISH MATERIALLARI SANOATI AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich,

Farg'ona politehnika instituti Korrupsiyaga qarshi  
kurashish "komplyens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i.  
e-mail: dehqonovsherzod@mail.ru, +998 90-290-05-00.

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 7

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.242>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

oliy ta'lim muassasalari, bitiruv malakaviy ish, malakali kadrlarini tayyorlash, ilmiy rahbar, bitiruvchi, mutaxassislik sohasi, yakuniy ish.

### ANNOTATSIYA

Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, uning elementlarining o'zaro bog'liqligini yaxshilash, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi. Maqola maqsadi sifatida qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy o'rganishlar olib borish va ilmiy takliflar shakllantirish olingan. Maqolada ilmiy mushohada, tahlil va sintez, taqqoslash, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning amaliy natijalaridan qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga narx, kredit va soliq omillarini ta'siri aniqlashda foydalanish mumkin.

**Kirish.** Jahonda qurilish sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish hamda ular faoliyatiga innovatsiyalarni qo'llash, boshqaruvning zamonaviy usullaridan foydalanish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. "COVID-19 ning global qurilish sanoati bozor qiymatiga ta'siri bo'yicha so'ngi hisob-kitoblarga ko'ra, 2019-yilga nisbatan 6% ga yaqin pasayish va har yili yillik o'sish 2020-yilga nisbatan 1,2% ga o'sish kutilmoqda. Shuningdek, qurilish sanoati uchun 2019-yilda binolar sohasidagi energiya samaradorligiga global sarmoya 2 foizga oshib, taxminan 152 mlrd. dollarni tashkil etgan" (Dexkanov 2021). Bu esa, jahonda o'z navbatida qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirib borishidan dalolat beradi.

Jahonda qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standart va tamoyillar asosida takomillashtirish, uni modellashtirish va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda boshqaruvning moslashuvchan va samarali usullari sinteziga asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish imkonini beruvchi asosiy omillarni boshqarish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda raqobatbardoshligini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish jarayonlarini jadallashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 43,3 mingtaga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 mingtaga ko'paygan. Qurilish korxonalarini umumiy sonining 56,9% bino va inshootlarni, 9,9% fuqarolik obyektlarini, 33,2% ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini qurilishiga teng bo'lgan (2). Shunga ko'ra, qurilish materiallari sanoati sohasida "korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarish-da aksiyadorlarning rolini kuchaytirish" (4), "korporativ huquqni rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini xalqaro tajribani inobatga olib joriy etish" (5) bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu

vazifalarning samarali hal etilishi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni samaradorligini oshirish xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ilmiy adabiyotlarda "korporativ boshqaruv" tushunchasi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Misol uchun R.I.Yaushevning ilmiy izlanishlari integratsion korporativ tuzilmalar va ta'sischi kapitalida davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish muammolariga bag'ishlangan (Yaushev, 2014). M.B.Xamidulin fond bozorini rivojlanishi, aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv Kengashining roli va ahamiyati masalalari ustida fikr yuritgan (Xamidulin, 2007). Korporativ munosabatlar tizimi korporativ va xususiy mulkni boshqarishni qo'llash jarayoni sifatida amerikalik huquqshunos olim A.Berli va iqtisodchi G.Minzning klassik ishlarida o'rganilgan (Berle va Means, 1937).

Rus olimlaridan Ye.P. Gubin "korporativ boshqaruv" tushunchasini "Korporativ boshqaruv korporativ manfaatlarining doimiy, uzluksiz ta'minlanishi bo'lib, korporativ nazorat munosabatlarida namoyon bo'ladi" (Gubin, 1999) deb tariflaydi.

I.S. Shitkina esa "Korporativ boshqaruv — bu korporatsiyalar faoliyati boshqariladigan va boshqariladigan jarayonga ta'sir majmui" (Shitkina, 2011) deb tariflaydi

Mamlakatimiz olimlaridan T.K.Madiyov "korporativ boshqaruv ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablag'larning yangi texnika va texnologiyalarni ko'plab jalb etilishi bilan uyg'unlikda olib boriladi", deb talqin qilgan bo'lsa (Madiyov, 1993) Sh.N.Zaynutdinov va D.N.Raximovalar "korporativ boshqaruv — manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir", degan ta'rifni keltirishgan (Zaynutdinov, 2007).

"Korporativ boshqaruv" tushunchasi o'zida kompleks qoida va rag'batlarni mujassam etib, ular yordamida aksiyadorlar korxonalar rahbariyati faoliyatini nazorat qiladi va foydani hamda korporatsiya qiymatini oshirish maqsadida menejmentga ta'sir ko'rsatadi (Мансупов, 2008).

I.V.Belinov korporativ boshqaruvni munosabatlar tizimi sifatida quyidagi xususiyatlarini alohida ajratib ko'rsatadi (Belinov, 2008): korporativ munosabatlar qatnashchilari qiziqishlarini, kompaniyani samarali faoliyati, uning ijtimoiy maqsadi, umumiy qiziqishlariga mosligini ta'minlashdagi masalalarni hal etish bo'yicha kompaniya egalari, uning menejmerlari, har xil aksiyadorlik guruhlarini, yaxlit kompaniya hamda boshqa qiziquvchi tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini tashkil etadi.


Boshqa manbalarda esa “korporativ boshqaruv – bu aksiyadorlik jamiyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari, individual guruhi va ijtimoiy manfaatlar o’rtasida muvozanatni belgilash jarayonidir. Boshqacha aytganda, bu kooperatsiyalashgan xo’jalik birlashmalarining manfaatlarini uyg’unlashtirish maqsadida ular o’rtasidagi boshqaruv munosabatlari tizimini shakllantirishdir” (13).

Muallif fikricha, qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv – bu manfaatdor jamiyatlarni samarali boshqarishni tashkil etishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini hamda boshqaruv jarayonlarini birlashtiruvchi majmui deb ta’rif bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning predmeti, deb qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlar oldi va ilmiy mushohada, tahlil va sintez, taqqoslash, ekspert baholash usuli, tizimli tahlil, ekonometrik modellashtirish usullaridan yordamidan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Hozirgi kunda qurilish faoliyati bilan shug’ullanayotgan tadbirkorlarni rivojlantirish mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini mustahkamlashning eng ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, 2020-yilda O’zbekiston Respublikasi qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 40,9 mingtani tashkil etib, bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 4,7 mingtadan oshgan. Mazkur ko’rsatkichni 2016-yilga nisbatan taqqoslansa, 19160 taga ko’paygan. Qurilish sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2016-yilni mos davriga nisbatan 185,4 foizga oshgan. Respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibida qurilish korxonalarining ulushi 8,6 foizni tashkil etgan.

Tahlil davomida, keyingi yillarda qurilish ishlarining YAIMdagi ulushi 2010-2020-yillar oralig’ida ortgan. Ba’zi yillarda oldingi yilga nisbatan kamayganligini ko’rish mumkin 2010-yilda qurilish sohasining YAIMdagi ulushi 11,1%, 2011-yilda esa 9,8%ga tushgan. Ushbu ko’rsatkich 2020-yilda 15,1%ni yoki qurilish sohasini o’sishi esa 9,1%ga teng bo’lgan. Bundan ko’rinib turibdiki, o’tgan yig’irma bir yil ichida qurilish sohasining YAIMdagi salmog’i ortgan.



3-rasm. YAIM va qurilish sohasidagi o’sishning 2000-2020-yillardagi holati<sup>1</sup>

Qurilishning asosi bo’lgan sement mahsulotini ishlab chiqarish borasida ham tizimli ishlar yo’lga qo’yilgan. 2020-yilda mamlakatimizda sement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan 29 ta korxonalar bo’lib, ularning yillik quvvati 20 mln. tonnani tashkil qilgan. Bunda “Qizilqum sement”, “Ohangaron sement”, “Quvasoy sement”, “Bekobod sement” aksiyadorlik jamiyatlari singari yirik ishlab chiqaruvchilarning hissasi katta. Jumladan, Jizzax sement zavodi, “Farg’ona sement” va “Zarafshon Oyna” MCHJlar hamda “Kvars” AJni ishlab chiqarish xajmi yuqori darajadagini ko’rish mumkin.

Quyida nomlari aytilgan jamiyatlarda asosiy fondlarining balans qiymati va soliq to’langunga qadar bo’lgan foydasi keltirilgan. Bu ko’rsatkichlardan foydalangan holda asosiy fondlarning fond qaytimi

bo’yicha 2018-2020-yillar oralig’ida 8 ta jamiyat bo’yicha, ya’ni rentabellik darajasi aniqlangan. Ushbu ko’rsatkichlar 2020-yilda bo’yicha “Bekobod sement” AJda 17,4%, “Qizilqum sement” AJda 37,1%, “Quvasoy sement” AJda 17,1%, “Ohangaron sement” AJ-23,8%, “Kvars” AJ-26%, Jizzax sement zavodi- 21,1%, “Zarafshon Oyna” MCHJ- 23,3%, “Farg’ona sement” MCHJ- 22,1%ni tashkil etgan.

Natijani yanada aniqroq belgilasak, soliq to’langunga qadar bo’lgan foyda ishlab chiqarishga avanslangan kapitalning necha foizini tashkil etishini ko’rsatib beradi. Ko’rib chiqilayotgan 2018-2020-yillarda ko’rsatkichlari tahlil qilinaotgan qurilish materiallari sanoati jamiyatlarida asosiy fondlar qiymatini ortib borishi va uning natijasida rentabellik darajasi ham ortishi o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik aniqlangan.

<sup>1</sup> Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qurilish materiallari sanoati jamiyatlarida asosiy fondlarni fond qaytimi usuli orqali rentabellik darajasi<sup>1</sup>

Jamiyatlar	Viloyatlar	2018	2019	2020
<b>Asosiy fondlarning balans qiymati (mln. so'm)</b>				
"Bekobod sement" AJ	Toshkent	6456342	7634342	8894564
"Qizilqum sement" AJ	Navoiy	9567987	10940123	11002234
"Quvasoy sement" AJ	Farg'ona	4973452	5234734	6752235
"Ohangaron sement" AJ	Toshkent	7621308	8834345	9221084
"Kvars" AJ	Farg'ona	7682265	8645342	9456765
Jizzax sement zavodi MCHJ	Jizzax	634723	714231	812342
"Zarafshon Oyna" MCHJ	Navoiy	734561	812213	855671
"Farg'ona sement" MCHJ	Farg'ona	645124	745341	834512
<b>Soliq to'lagunga qadar bo'lgan foydasi (mln. so'm)</b>				
"Bekobod sement" AJ	Toshkent	1220249	1381816	1547654
"Qizilqum sement" AJ	Navoiy	2478109	3938444	4081829
"Quvasoy sement" AJ	Farg'ona	944955,9	1010304	1154632
"Ohangaron sement" AJ	Toshkent	1829114	2482451	2194618
"Kvars" AJ	Farg'ona	1982024	2740573	2458759
Jizzax sement zavodi	Jizzax	143447,4	199270,4	171404,2
"Zarafshon Oyna" MCHJ	Navoiy	149115,9	200616,6	199371,3
"Farg'ona sement" MCHJ	Farg'ona	124508,9	175900,5	184427,2
<b>Asosiy fondlarning fond qaytimi bo'yicha rentabellik darajasi (foiz hisobida)</b>				
"Bekobod sement" AJ	Toshkent	18,9	18,1	17,4
"Qizilqum sement" AJ	Navoiy	25,9	36	37,1
"Quvasoy sement" AJ	Farg'ona	19	19,3	17,1
"Ohangaron sement" AJ	Toshkent	24	28,1	23,8
"Kvars" AJ	Farg'ona	25,8	31,7	26
Jizzax sement zavodi	Jizzax	22,6	27,9	21,1
"Zarafshon Oyna" MCHJ	Navoiy	20,3	24,7	23,3
"Farg'ona sement" MCHJ	Farg'ona	19,3	23,6	22,1

Bu bog'liqlik asosiy fondlarning, fond qaytimini o'zgarishi asosida jamiyatda iqtisodiy samaradorlik qanday holatda ekanligini baholash imkonini beradi.

Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi, mahsulot tannaxini muvofiqlashtiruvchi ko'rsatkichlari ham aniqlangan.

Mehnat unumdorligi deganda, bitta xodimning bir vaqt birligi (soat, smena, oy, chorak, yil) davomida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmining miqdori (natural, natural-shartli, qiymat, mehnat) yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanishi tushuniladi (*Irmatova, 2015*). Shuningdek, qurilish sohasidagi jamiyatlarda mehnat unum-dorligi, boshqaruv samaradorligi aniqlangan (2-jadval)

2-jadval

<b>Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish ko'rsatkichlari</b>				
Jamiyatlar	Viloyatlar	2018	2019	2020
<b>Boshqaruv samaradorligi (koeffitsiyent)</b>				
"Bekobod sement" AJ	Toshkent	0,86	0,88	0,91
"Qizilqum sement" AJ	Navoiy	0,79	0,86	0,76
"Quvasoy sement" AJ	Farg'ona	0,71	0,89	0,91
"Ohangaron sement" AJ	Toshkent	0,69	0,71	0,81
"Kvars" AJ	Farg'ona	0,86	0,81	0,86
"Farg'ona sement" MCHJ	Farg'ona	0,85	0,87	0,89
<b>Mehnat unumdorligi (bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqilgan mahsulot xajmi, mln. so'm miqdorida)</b>				
"Bekobod sement" AJ	Toshkent	0,70	0,75	0,71
"Qizilqum sement" AJ	Navoiy	0,52	0,56	0,59
"Quvasoy sement" AJ	Farg'ona	0,61	0,65	0,69
"Ohangaron sement" AJ	Toshkent	0,53	0,51	0,58
Jizzax sement zavodi	Jizzax	0,72	0,75	0,71
"Farg'ona sement" MCHJ	Farg'ona	0,75	0,78	0,73

<sup>1</sup> Manba: Jamiyatning buxgalteriya balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari asosida muallif xisob-kitoblari.

Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini baholashga yondashuvni o'rtacha (0,4-0,65), yaxshi (0,66-0,85), yuqori (0,86-1) moliyaviy-iqtisodiy natijaga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar orqali asoslangan. Shuningdek, boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi 2020-yilda "Bekobod sement" AJ- 0,91, "Quvasoy sement" AJ-0,91, "Kvars" AJ- 0,86, "Farg'ona sement" MCHJ- 0,89 ga teng ya'ni yuqori, "Qizilqum sement" AJ-0,76, "Ohangaron sement" AJ- 0,81 koeffitsiyentga teng bu korxonalar yaxshi bo'lgan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlaridagi mehnat unumdorligi bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqilgan mahsulot xajmi "Bekobod sement" AJ- 0,71 mln.so'm, "Ohangaron sement" AJ- 0,58 mln.so'm, "Farg'ona sement" MCHJ -0,73 mln.so'mga tengligi aniqlangan.

Shuningdek, ishlab chiqarilgan g'isht mahsulotlarini xududlar kesmida guruhlash oraliq mezonlarini (0-50 mln.dona) "qoniqarsiz", (50-100 mln.dona) "o'rta", (100-150 mln.dona) "raqobatbardosh" va (150 va 200 mln.dona) "innovatsion" shkalalar bo'yicha baholash asoslangan. Jumladan, respublikamizda 2019-yilda g'isht ishlab chiqarish bo'yicha "qoniqarsiz" eng past Sirdaryo (33,2 mln.dona), Samarqand (39,4 mln.dona), Toshkent shahri (47,0 mln. dona) va Jizzax (48,8 mln. dona), "o'rta" mezon bo'yicha Andijon (53,7 mln.dona), Namangan (63,7 mln. dona), Farg'ona (97,7 mln. dona), "raqobatbardosh" mezoniga Xorazm (103,6 mln. dona), Buxoro (144,7 mln. dona), "innovatsion" shkala bo'yicha Toshkent viloyati (331,9 mln. dona) viloyatlarga to'g'ri kelgan. (3-jadval).

3-jadval

Statistik guruhlash asosida ishlab chiqarilgan g'isht mahsulotlarini xududlar kesmida tahlili<sup>1</sup>

№	Guruhlash oraliqi (mln.dona)	Viloyatlar	Ishlab chiqarilgan qurilish g'ishti hajmi, (mln. dona)				2019-yilda 2016-yilga nisbatan o'zgarishi	
			2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	(+; -)	%
1	"Qoniqarsiz" (0-50)	Sirdaryo	30,5	27,4	42,7	33,2	2,7	1,1
		Samarqand	66,4	68,5	64,2	39,4	-27	0,6
		Toshkent sh.	56,1	56,8	53,1	47,0	-9,1	0,8
		Jizzax	27,7	28,5	50,7	48,8	21,1	1,8
2	"O'rta" (50-100)	Andijon	74,4	62,1	84,6	53,7	-20,7	0,7
		Namangan	82,3	83,0	100,5	63,7	-18,6	0,8
		Navoiy	151,9	158,5	115,6	63,7	-88,2	0,4
		Qashqadaryo	84,3	116,4	96,7	78,9	-5,4	0,9
		Surxondaryo	74,2	87,6	111,0	81,2	7	1,1
		Farg'ona	105,2	969,8	121,9	97,7	-7,5	0,9
3	"Raqqobatbardosh" (100-150)	Xorazm	139,6	167,5	160,3	103,6	-36	0,7
		Buxoro	162,3	147,4	135,3	144,7	-17,6	0,9
4	"Innovatsion" (150 va undan yuqori)	Toshkent	363,8	385,9	517,6	331,9	-31,9	0,9

Jumladan, 2016-yilda 360 mln. dollar investitsiya sohaga jalb qilin-gan bo'lsa, o'tgan 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 1 mlrd 332 mln. dollarga yetkazildi. Uning 680,4 mln. dollari xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri keladi.

4-jadval

Qurilish materiallari sanoati aksionerlik jamiyatlarida qurilish ishlari hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'zgarishi<sup>2</sup>

O'zgaruvchi	Model koeffitsiyenti	Standart xatolar	t-Styudent mezoni	P-qiymati
C	-23,1570	8,67874	-2,668	0,0321
lnX <sub>1</sub>	1,70843	0,774329	2,206	0,0431
lnX <sub>2</sub>	1,91382	0,626511	3,055	0,0185
lnX <sub>3</sub>	0,267900	0,263510	1,017	0,0342
R <sup>2</sup> -Determinatsiya koeffitsiyenti	0,98	Bog'liq o'zgaruvchining o'rtacha qiymati		10,229
Tekislangan R <sup>2</sup> -Determinatsiya koeffitsiyenti	0,983	Bog'liq o'zgaruvchining standart chetlanishi		0,785
Regressiyaning standart xatosi	0,102	Akaykening axborot modeli		-15,785
Qoldiqlar kvadratlar yig'indisi	0,07	Shvarsning axborot modeli		-14,193
Maksimal o'xshashlik funksiyasining qiymati	11,9	Hannan-Quinn criter		-16,788
F - Fisher mezoni	192,1	DW-Darbin-Uotson mezoni		1,64
Prob (F - Fisher mezoni)	0,000			

Qurilish materiallari sanoati aksionerlik jamiyatlarida ta'sir etuvchi omillarning qurilish ishlari hajmi empirik modelga ta'sirchan koeffitsiyentlar qo'yilib, ko'p omillik ekonometrik model funksiyasi tuzildi:

$$lny = \frac{-23,1570}{t} + \frac{1,70843}{(2,206)} * ln x_1 + \frac{1,91382}{(3,055)} * ln x_2 + \frac{0,2679}{(1,017)} * ln x_3$$

Odatda, determinatsiya koeffitsiyenti [0;1] kesmada qiymatlarni qabul qiladi. Koeffitsiyent qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, bog'liqlik shuncha-lik kuchli hisoblanadi. Mazkur holatda determinatsiya koeffitsiyentining 0,98 qiymatga teng bo'lishi, modelda mazkur

iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida yetarli darajada kuchli bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Modellarini turli miqdordagi omillar bilan taqqoslash imkoniyati bo'lishi va ushbu miqdordagi omillar R<sup>2</sup>=0,983 qiymatiga teng bo'lishi va uning R<sup>2</sup> ga yaqinligi, modelning ta'sir etuvchi

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan  
<sup>2</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.



omillar soni o'zgarishi atrofda qiymat-lar qabul qilinishini bildiradi. F-mezonning haqiqiy qiymati  $F_{hisob}=192$  ga yoki  $F_{jadval}=4,68$  ga teng. Agar haqiqiy qiymat jadvaldagi qiymatdan kata bo'lsa, u holda tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli yoki o'rganilayotgan jarayonga adekvat deyiladi.

Styudentning t-mezoni hisoblangan ( $t_{hisob}$ ) va jadval ( $t_{jadval}$ ) qiymatlarini taqqoslab, ishonchlilik ehtimoli  $\alpha = 0,05$  va ozodlik

darajasi d.f.=10-3-1=6 bo'lganda, t - mezonning jadval qiymati  $t_{jadval}=2,1448$  ga teng.

Qurilgan modellar orqali qurilish ishlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning 5-jadvalda bir necha prognoz varianti ishlab chiqilib ulardan eng optimal variantlari tanlangan.

5-jadval

**Omillarining eng optimal prognoz modellari**

No	Ko'rsatkichlar	Prognoz modellari	MAPE
1	Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, mingta	$X1 = 16375,0 - 957,706 * t + 229,549 * t^2$	5
2	Qurilish sohasida bandlar soni, ming kishi	$X2 = 887,255 + 103,973 * t - 7,28182 * t^2$	3,99
3	Asosiy kapitalga investitsiya, mlrd so'm	$X3 = 10860,8 * (1,29778^t)$	7,25

O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasi hajmini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni quyidagicha belgilab oldik:

Y- qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm);

X<sub>1</sub>- qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni (ming dona);

X<sub>2</sub>-qurilish sohasida bandlar soni (ming kishi);

X<sub>3</sub>-asosiy kapitalga investitsiya.

Respublikada yalpi ichki mahsulot hajmi 2025-yilga borib, qurilish ishlari hajmi ta'sirida 943 trln. so'm (2020-yil narxlarida) bo'lishi, yoki 2020-yildagidan 167 foizga oshishi kutilar ekan.

Ilmiy izlanishlarimizga asosanib 2025-yilga borib respublikada qurilish materiallari hajmi 192301 mlrd.so'm bo'lishi, qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 59816,2 mingta, qurilish sohasida bandlar soni, 986,67 ming kishi tashkil etishi, asosiy kapitalga investitsiya 703169 mlrd. so'm bo'lishi aniqlandi.

6-jadval

**Qurilish mahsulotlari sanoati aksionerlik jamiyatlarida qurilish ishlari xajmiga ta'sir etuvchi omillarni 2021-2025-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

Yillar	Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd so'm	Qurilish materiallari hajmi, mlrd so'm	Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni mingta	Qurilish sohasida bandlar soni, ming kishi	Asosiy kapitalga investitsiya, mlrd so'm
	Z	Y	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>
2021	630611,10	105548	37937,6	1086,35	247891
2022	703052,263	124629	42718,6	1008,27	321707
2023	779418,81	145448	47958,7	915,64	417503
2024	859708,67	168005	53657,9	1002,44	541826
2025	943920,19	192301	59816,2	986,67	703169

So'nggi yillarda mamlakatimizda korporativ boshqaruvga munosabat o'zgarib boshladi. O'zbek kompaniyalari samarali korporativ boshqaruvning global tajribasidan tobora ko'proq foydalanmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ boshqaruv standartlariga rioya qilish kompaniyaning bozor kapitallashuvini oshiradi va moliyaviy resurslarni tashqaridan jalb qilish xarajatlarini kamaytiradi. Shunga ko'ra, aktivlarning bozor qiymati va uning o'zgarishi dinamikasi ham korporativ boshqaruv samaradorligining bilvosita ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pincha korporativ boshqaruv amaliyoti ko'pincha investitsiya qarorlarini qabul qilishning asosiy mezonlari qatoriga kiradi, shuning uchun uning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kompaniya uchun kapital bozoriga kirish osonroq bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Sohaning vazifasi zamonaviy qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari bilan investitsion qurilish majmuasining ehtiyojlarini to'liq qondirish va qabul qilinadigan iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega standartlar hamda me'yorlar talablariga javob beradigan keng turdagi mahsulotlar bilan ta'minlashdir.

Hozirgi vaqtda ushbu vazifaga muvofiqlikni quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirish orqali erishish mumkin:

-chet el texnologiyalari va usullarini kuzatish orqali innovatsion jarayonni faollashtirish, shuningdek ilmiy-o'quv va ishlab chiqarish muammolarini samarali hal etish va sohaning kadrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion ishlab chiqarish ilmiy klasterini yaratish;

-sohaning investitsion jozibadorligini oshirish va qurilish materiallari sanoatining rivojlanish sur'atlari o'sishi uchun turli moliyalashtirish manbalaridan investitsiyalarning keng jalb qilinishini ta'minlash;

-yangi texnologiyalarni qo'llash orqali energiya va resurslarni tejash, boshqa yoqilg'i va xomashyo manbalariga o'tish, masalan, sement ishlab chiqarishning "quruq" usulini foydalanish orqali sezilarli o'sishga erishish;

-soha korxonalarining joylashuvini yaxshilash, ularning mamlakat bo'ylab bir tekis joylashishini ta'minlash va shu bilan tayyor mahsulotni yetkazib berish uchun transport xarajatlarini kamaytirish.

Natijada sohaning samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uning investitsion qurilish jarayonining zamonaviy talablariga yuqori darajada muvofiqligini ta'minlashi kerak. Bu sarmoyadorlar uchun yangi obyektlarni qurish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi va mamlakatda investitsion jozibadorlikni yangi bosqichga ko'taradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan

1. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
2. <https://anhor.uz/uz/stroitelystvo-v-uzbekistane/zbekistonda-urilish-2021-tarmo-dagi-muammolar-uning-olati-isti-bollari/>
3. Madiyurov T.K. Dehqonchilik-sanoat majmuida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimi va korporativ boshqaruvni joriy etish xususiyatlari: iqt. fan .dok. ... dis. ishi. — T.: 1993
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Xamidulin M.B. – Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T.: Akademiya, 2007. -224 b
7. Irmatova Z.B. Korxonalarda mehnat unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlashni takomillashtirish yo‘llari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015-yil, -B.3.
8. Zaynutdinov Sh.N., Rahimova D.N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b.
9. Дехканов, Ш. (2021). РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ ОТРАСЛИ СТРОИТЕЛЬНОЙ ПРОДУКЦИИ. Экономика и образование, (5), 118–125.
10. Корпоративное право: учебник для вузов/ Под ред. И.С. Шиткиной. — М., 2011.
11. Мансуров О.Б. Бозор иқтисодиёти шароитида корпоратив бошқарув. Монография. –Т.: Молия, 2008. 163б.
12. Совет директоров как мировой стандарт корпоративного управления компанией / Под ред. И.В.Белинова. – М.: Эксмо, 2008. – С.12.
13. Толковые словари. Образовательный ресурс. [http://www-eduic.ru/biz/20526](http://www.educ.ru/biz/20526). – 642 с.
14. Управление и корпоративный контроль в акционерном обществе: прак. пособие/ Под ред. Е.П. Губина. — М., 1999. С. 17.
15. Яушев Р.И. Состояние и проблемы управления государственными пакетами акций корпораций// Корпоративное управление в Узбекистане. Материалы научно-практической конференции.–Т.: 2004. С.15.

**QO'QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**1 / 2023**

**ISBN: 2181-1695**

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»  
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.  
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida  
chop etildi.



OJS  
OPEN  
JOURNAL  
SYSTEMS

